


## TOSHKENT VILOYATIINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2019 yil yanvar-mart)

2019 yil yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, viloyatda tashqi savdo aylanmasi 1 061,4 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 59,0 %ga o'sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 453,3 mln. AQSH dollarga (81,6 %ga oshgan) va import hajmi 608,1 mln. AQSH dollariga (o'sish sur'ati 145,5 %) yetdi. Tashqi savdo saldosini minus 154,8 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.


**Toshkent viloyatining tashqi savdo aylanmasi**  
(mln. AQSH dollari)



So'ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi. Jumladan, xom-


ashyo eksportidan, qo‘shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo‘naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

**Toshkent viloyati tashqi savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari**  
(o‘tgan yilga nisbatan,%)



Shu bilan birga ta’kidlab o‘tish kerakki, 2019 yilning mart oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar, fevral oyiga nisbatan 7,1 mln. AQSH dollarga kamroq eksport qilindi va 165,9 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Tovar va xizmatlar importi hajmi esa 256,0 mln. AQSH dollarini tashkil qilgan bo‘lib, bu esa fevral oyiga nisbatan 83,4 mln. AQSH dollariga ko‘proqdir. Bu asosan mashina va asbob-uskunalar, qora va rangli metallar shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlariga to‘g‘ri keldi.

**2019 yil yanvar-mart oylarida tovar va xizmatlarning oylik eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi**  
(mln. AQSH dollari)



2019 yil yanvar-mart oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi joriy yilning yanvar oyidan buyon deyarli o'zgarishsiz qolmoqda.

**Viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar**

(mln. AQSH dollari)

| Davlat nomi         | Tashqi savdo aylanmasi | Eksport | Import | Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, % |
|---------------------|------------------------|---------|--------|--------------------------------------|
| Xitoy               | 207,5                  | 106,7   | 100,8  | 19,6                                 |
| Qozog`iston         | 206,1                  | 42,5    | 163,5  | 19,4                                 |
| Rossiya             | 196,3                  | 64,1    | 132,2  | 18,5                                 |
| Turkiya             | 163,3                  | 139,5   | 23,8   | 15,4                                 |
| Koreya Respublikasi | 45,1                   | 3,7     | 41,5   | 4,3                                  |
| Braziliya           | 32,3                   | 0,0     | 32,3   | 3,0                                  |

*(mln. AQSH dollar)*

| Davlat nomi | Tashqi savdo aylanmasi | Eksport | Import | Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, % |
|-------------|------------------------|---------|--------|--------------------------------------|
| Angliya     | 22,9                   | 22,9    | 0,0    | 2,2                                  |
| Germaniya   | 19,9                   | 0,8     | 19,1   | 1,9                                  |
| Ukraina     | 14,6                   | 10,5    | 4,1    | 1,4                                  |
| Litva       | 14,4                   | 0,0     | 14,3   | 1,4                                  |
| BAA         | 13,8                   | 13,7    | 0,1    | 1,3                                  |
| Afg`oniston | 13,5                   | 13,5    | 0,0    | 1,3                                  |
| Italiya     | 10,0                   | 0,6     | 9,5    | 0,9                                  |
| Tojikiston  | 9,6                    | 2,8     | 6,8    | 0,9                                  |
| Hindiston   | 8,6                    | 0,7     | 7,9    | 0,8                                  |
| Singapur    | 7,7                    | 6,6     | 1,1    | 0,7                                  |
| Eron        | 7,6                    | 4,0     | 3,6    | 0,7                                  |
| Qirg`iston  | 7,3                    | 4,1     | 3,3    | 0,7                                  |
| Latviya     | 6,7                    | 0,7     | 6,0    | 0,6                                  |
| Belarusiya  | 4,6                    | 2,9     | 1,7    | 0,4                                  |
| Malayziya   | 4,4                    | 0,2     | 4,2    | 0,4                                  |
| Shvetsariya | 3,7                    | 0,2     | 3,5    | 0,4                                  |


Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019 yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 41,9 %ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 48,6 % ga oshdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2018 yilning yanvar-mart oylarida 55,2 %ni tashkil qilgan bo'lsa, 2019 yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 58,1 %ga yoki 2,9 % punktga oshdi.

## EKSPORT

2019 yil yanvar-mart oylarida eksport hajmi 453,3 mln. AQSH dollarga (81,6 % ga oshgan) teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 99,5 % ulushga ega, bular asosan qora va rangli metallar (59,9 %), boshqa turdagi tovarlar (15,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari (5,6 %), paxta tolasi (15,1 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (1,5 %) shuningdek, mashina va uskunalar (2,4 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (mln.AQSH dollari)




**Eksport tarkibi**

|  | Jami            |                          |                           | MDH davlatlari  |                          |                           | Boshqa davlatlar |                          |                           |
|--|-----------------|--------------------------|---------------------------|-----------------|--------------------------|---------------------------|------------------|--------------------------|---------------------------|
|  | mln. AQSH doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSH doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSH doll.  | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % |
| <b>Eksport</b>                           | <b>453,3</b>    | <b>181,6</b>             | <b>100,0</b>              | <b>130,2</b>    | <b>187,4</b>             | <b>100,0</b>              | <b>323,1</b>     | <b>179,4</b>             | <b>100,0</b>              |
| Paxta tolasi                             | 68,5            | 457,2                    | 15,1                      | 0,1             | 7,7                      | 0,1                       | 68,5             | 484,2                    | 21,2                      |
| Oziq-ovqat mahsulotlari                  | 25,3            | 102,4                    | 5,6                       | 16,3            | 222,2                    | 12,6                      | 9,0              | 51,7                     | 2,8                       |
| Kimyo mahsulotlari va buyumlari          | 6,7             | 67,2                     | 1,5                       | 4,7             | 141,0                    | 3,6                       | 2,0              | 30,0                     | 0,6                       |
| Energiya manbaalari va neft mahsulotlari | 0,0             | -                        | 0,0                       | 0,0             | 0,0                      | 0,00                      | 0,0              | -                        | 0,0                       |
| Qora va rangli metallar                  | 271,4           | 186,3                    | 59,9                      | 55,4            | 213,0                    | 42,5                      | 216,0            | 180,5                    | 66,9                      |
| Mashina va asbob-uskunalar               | 11,0            | 162,7                    | 2,4                       | 3,9             | 219,0                    | 3,0                       | 7,1              | 142,6                    | 2,2                       |
| Xizmatlar                                | 2,4             | 102,2                    | 0,5                       | 0,5             | 189,3                    | 0,4                       | 1,9              | 91,2                     | 0,6                       |
| Boshqalar                                | 67,9            | 150,4                    | 15,0                      | 49,3            | 164,9                    | 37,9                      | 18,6             | 122,1                    | 5,8                       |

Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-mart oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari yanvar oyida kuzatilgan. Bu asosan qora va rangli metallar, paxta tolasiga to'g'ri keldi.



**Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari dinamikasi**  
(o'tgan yilga nisbatan,%)




Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning mart oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar fevral oyiga nisbatan 4,1 %ga kamaygan.

Xizmatlar eksporti hajmi 2,4 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,5 %ini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,2 %ga oshgani kuzatildi.


Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahliliga ko'ra, 2019 yilning mart oyi mobaynida eksport qilingan tovarlar hajmi, fevral oyiga nisbatan 7,1 mln. AQSH dollariga kam eksport qilindi va 165,9 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar eksporti esa 2,4 mln. AQSH dollarga yetgan.

**2019 yil yanvar-mart oylarida tovarlar va xizmatlar eksporti dinamikasi**  
(oylar kesimida, mln. AQSH dollari)



**Viloyat eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi**  
(2019 yil yanvar-mart, %)



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Turkiya va Xitoy Xalq Respublikasi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 54,3 % ini tashkil qiladi. Turkiya va Xitoy Xalq Respublikasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.



### Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2019 yilning yanvar-mart oylarida jami 21,0 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 16,1 mln. AQSH dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati - 60,7 %ga oshgan). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2019 yilning yanvar-mart oylarida 19,4 ming tonnadan ko'proq sabzavotlar 10,7 mln. AQSH dollariga yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,3 ming tonnaga ko'p miqdorda eksport qilingan.

Shuningdek, 1,2 ming tonna meva va rezavorlar 5,0 mln. AQSH dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,9 ming tonnaga kamroqdir.

### Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi




Shuni aytib o'tish joizki, viloyatning eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilinmoqda. Jumladan, 2019 yilning yanvar-mart oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 15,7 mln.AQSH dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,5 %ga oshgan).

## IMPORT

Joriy yilning yanvar-mart oylarida import hajmi 417,9 mln. AQSH dollariga (o'sish sur'ati 145,5 %) teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (27,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari (22,5 %), qora va rangli metallar (16,0 %) hamda boshqa mahsulotlar (22,6 %) guruhlari hisobiga to'g'ri keldi.

### Tovar va xizmatlar importi tarkibi (mln.AQSH dollari)




**Import tarkibi**

|  | Jami            |                          |                           | MDH davlatlari  |                          |                           | Boshqa davlatlar |                          |                           |
|--|-----------------|--------------------------|---------------------------|-----------------|--------------------------|---------------------------|------------------|--------------------------|---------------------------|
|  | mln. AQSH doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSH doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSH doll.  | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % |
| <b>Import</b>                            | <b>608,1</b>    | <b>145,5</b>             | <b>100,0</b>              | <b>314,4</b>    | <b>136,9</b>             | <b>100,0</b>              | <b>293,7</b>     | <b>156,0</b>             | <b>100,0</b>              |
| Oziq-ovqat mahsulotlari                  | 137,0           | 396,9                    | 22,5                      | 86,1            | 356,0                    | 27,4                      | 51,0             | 492,3                    | 17,4                      |
| Kimyo mahsulotlari va buyumlari          | 55,4            | 136,5                    | 9,1                       | 18,7            | 180,8                    | 5,9                       | 36,8             | 121,4                    | 12,5                      |
| Energiya manbaalari va neft mahsulotlari | 5,7             | 81,0                     | 0,9                       | 5,4             | 81,6                     | 1,7                       | 0,3              | 71,8                     | 0,1                       |
| Qora va rangli metallar                  | 97,4            | 159,5                    | 16,0                      | 80,1            | 151,6                    | 25,5                      | 17,3             | 210,5                    | 5,9                       |
| Mashina va asbob-uskunalar               | 167,0           | 82,9                     | 27,5                      | 19,1            | 23,0                     | 6,1                       | 147,9            | 125,1                    | 50,4                      |
| Xizmatlar                                | 8,1             | 234,8                    | 1,3                       | 1,0             | 113,9                    | 0,3                       | 7,0              | 277,7                    | 2,4                       |
| Boshqalar                                | 137,5           | 196,9                    | 22,6                      | 104,0           | 201,7                    | 33,1                      | 33,4             | 183,3                    | 11,4                      |

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-mart oylari davomida yuqori o'sish sur'ati yanvar oyida kuzatilgan.


**Tovarlar va xizmatlar importining o'sish sur'atlari dinamikasi**  
(o'tgan yilga nisbatan, %)



Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning mart oyida import qilingan tovar va xizmatlar fevral oyiga nisbatan 48,3 %ga ko'paygan.


Xizmatlar importi hajmi 8,1 mln. AQSH dollarini yoki jami import hajmining 1,3 %ini tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 134,8% ga o'sdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari, qurilish xizmatlari va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlaridan iborat bo'ldi.

**2019 yil yanvar-mart oylarida tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi**  
(oylar kesimida, mln. AQSH dollari)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019 yilning o'tgan davri mobaynida viloyatga import qilinayotgan tovar va xizmatlar mart oyida, fevral oyiga nisbatan 83,4 mln. AQSH dollarga ko'p import qilindi va 608,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

**Viloyat importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi**  
(2019 yil yanvar-mart, %)



**Xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalarining eksport-importi**  
(2019 yil yanvar-mart holatiga)

|                | Eksport-import qilgan korxonalar soni | mln. AQSH doll. | O'tgan yilning shu davriga nisbatan foiz xisobida |
|----------------|---------------------------------------|-----------------|---|
| <b>Eksport</b> | 64                                    | 55,6            | 100,2   |
| <b>Import</b>  | 165                                   | 168,2           | 206,4   |

**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda**





2019 yilning yanvar-mart oylarida viloyatga 79 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston, Turkiya, Koreya Respublikasi va Braziliya hamkor davlatlarining jami import hajmi 494,2 mln. AQSH dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 81,3%ini tashkil qiladi

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashina va asbob-uskunalar hamda kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar viloyatimizga olib kirilayotganligini ko'rish mumkin.

Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel.:71-230-86-59**